

2018 yil yanvar

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar oyida 81,4 mln. AQSh dollari, shu jumladan eksport 14,3 mln. AQSh dollari va import 67,2 mln. AQSh dollari tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi -52,9 mln. AQSh dollari tashkil etdi.


Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 martaga va xizmatlar eksporti 20,1 foizga o'sdi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 6,3 mln. AQSh dollari tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 86 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar oyida 63,5 mln. AQSh dollari, shu jumladan eksport 11,2 mln. AQSh dollari va import 52,3 mln. AQSh dollari tashkil qildi.

Eksport



Import



- | | |
|---------------------------|------------------------------|
| ■ Paxta | ■ Kinoyo mahsulotlari |
| ■ Qora va rangli metallar | ■ Mashina va asbob-uskunalar |
| ■ Oziq-ovqat | ■ Xizmatlar |
| ■ Boshqalar | ■ Energetik mahsulotlar |



Eksport va importda sohalar ulushlari


Import tarkibining umumiy hajmidan 29,6 foizini mashina va asbob-uskunalar, 34,4 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 9,3 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 59,7 foizni va sa-

farlar 7,7 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni 29,6 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 2,7 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (51,4 foiz) eksport hajmining yarmini tashkil etdi.



2018 yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasi saldosı -52,9 mln. AQSh dollari tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan -13,1 mln. AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan -39,8 mln. AQSh dollari tashkil etdi.


2018 yilning yanvarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan, %</i>
Eksport	14,3	95,6	100
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	7,3	75,6	51,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	0,4	151,1	2,9
qora va rangli metallar	0,5	54,5	3,2
mashina va asbob-uskunalar	0,4	2,7M	2,7
xizmatlar	1,3	120,1	9,3
boshqalar	4,4	156,5	30,5
Import	67,2	153,4	100
oziq-ovqat mahsulotlari	11,7	117,5	17,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	23,1	153,6	34,4
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,1	195,8	0,2
qora va rangli metallar	7,3	4m	10,8
mashina va asbob-uskunalar	19,9	171,5	29,6
xizmatlar	0,2	58,8	0,2
boshqalar	4,9	97,4	7,4

2018 yil yanvar oyida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 37,7 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 62,3 foizni tashkil qildi.

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 6,3 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 83,6 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 37,8 foizni sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 54,3 foizni tashkil qildi), 21,2 foizni mevalar (92,8 foizni), 39,3 foizni uzum (148,4 foizni) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 51,4 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (117,6 foizni) tashkil qiladi.



Tashqi savdo aylanmasida davlatlar ulushi, foizda

Tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 12,7 foiz), Rossiya (19,9 foiz), Afg'oniston (0,9 foiz), Xitoy (16,0 foiz), Turkiya (7,8 foiz), Qirg'iziston (0,3 foiz) va Iroq (0,2 foiz) hisoblanadi.

